WORLD CONFERENCE ON STUDENT - CENTERED LEARNING APPROACHES

YUQORI VA SIFATLI DARAJADA HOSIL OLISH UCHUN YERYONG'OQNI MAQBUL ME'YOR VA MUDDATLARDA SUG'ORISH

Boymanova Olima Obid qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

ANNOTATSIYA

Yeryong'oq o'simligining ayrim biologik xususiyatlari, ozuqaviy ahamiyati, sug'orish usullari, tartibi va muddatlari hamda hosildorlikni oshirishdagi o'rni haqidagi ma'lumotlarni bilish hozirgi kunda dolzarbdir

Kalit so'zlar: Arachis hypogeae L., dukkaklar soni, ginafor, vegetativ, yelkancha barglanish, gullash.

АННОТАЦИЯ

В настоящее время крайне важно обладать информацией об определенных биологических особенностях арахиса, его пищевой ценности, методах, графиках и сроках орошения, а также о его роли в повышении урожайности сельскохозяйственных культур.

Ключевые слова: Arachis hypogeae L., количество бобов, гинафор, вегетатив, плечевая складчатость, цветение

ABSTRACT

It is currently highly relevant to be informed about certain biological characteristics of the peanut plant, its nutritional value, irrigation methods, schedules, and timing, as well as its role in increasing crop yields.

Keywords: Arachis hypogeae, number of pods, gynaphor, vegetative, shoulder folding, blossom

Kirish

Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham

mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masaladir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida, kambag‘allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo‘jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Bu jarayonda har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o‘rtacha 2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qo‘yildi va qishloq xo‘jaligiga eng ilg‘or texnologiyalar, suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, urug‘chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz lozimligi belgilab berildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Respublikamizda yeryong‘oq ekiladigan maydonlarni kengaytirish, har bir gektar maydondan olinadigan hosil miqdorini oshirish hisobiga sanoatni rivojlantirish va eksportni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Yeryong‘oq dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simlikdir.

Klassifikatsiyasi:

Bo‘lim – Magnoliya (Magnoliyophyta)

Sinf – Ikki urug‘ pallalilar(legumeinocae)

Oila – Dukkakdoshlar (Fabaceae)

Turkum – Yeryong‘oq (Arachis)

Tur - Arachis hypogea L

Yeryong‘oq qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlikdir. Biologiyasiga ko‘ra, yeryong‘oq ekini g‘o‘za, soya va makkajo‘xori o‘simligidan ko‘proq, kunjut va jo‘xori

o‘simligidan kamroq qurg‘oqchillikka chidaydi. U o‘sish va rivojlanish mavsumida suvga bo‘lgan talabini tabiiy yog‘ingarchilik suvlari bilan qisman ta’minlashi mumkin.

Rivojlanish davrlarida jami 500-750 mm lik tabiiy yog‘ingarchilik bo‘lsa, sug‘orishga ehtiyoj bo‘lmaydi. Lekin, O‘zbekistonda yeryong‘oq yetishtiriladigan hududlarda bahorgi va yozgi yog‘ingarchilik miqdori yetarlicha bo‘lmaganligi sababli, sug‘orishga albbatta ehtiyoj seziladi. Sug‘orish vaqtida o‘simliklar kerakli miqdorda namlik bilan ta’minlanishi hosildorlikning oshishiga olib keladi. Asosan dukkak ichidagi mag‘iz to‘lishi paytida, ildiz qismida namlik doimo bo‘lishi kerak. Chunki, ginaforlarning tuproqqa osonlikcha kira olishi uchun, tuproqdagi namlik miqdori yetarli miqdorda bo‘lishi lozim.

Yeryong‘oq asosiy ekin sifatida ekilganda bahorda tuproq namiga undirib olinadi. Ayrim hollarda bahor quruq kelib, tuproq namligi yetarli bo‘lmasa pushtalar qator oralatib, qondirib sug‘oriladi. Biroq pushtani suv bosishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega. Yeryong‘oq o‘simligini yetishtirishda undan mo‘l hosil olishning asosiy omillaridan biri ekinning suvga bo‘lgan talabiga qarab uni suv bilan yetarli darajada ta’minlashdir.

Yeryong‘oq o‘simligini suv bilan yetarli darajada ta’minlanmaganda unda bo‘ladigan fiziologik jarayonlar buziladi. Natijada o‘simlikning o‘sishi va revojlanishi sekinlashib, hosildorlik kamayadi. Agarda suv bilan ta’minlash muddatidan oldin va keragidan ortiqcha bo‘lgan taqdirda ham o‘simlik barglari sarg‘ayib, meva tugish jarayoni kechikadi, natijada hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yeryong‘oq o‘simligidan yuqori va sifatli mahsulot olish uchun sug‘orish miqdorini va uning muddatlarini to‘g‘ri belgilashning ahamiyati kattadir. Ko‘p hollarda dehqonlar yeryong‘oqning sug‘orish muddatlarini uning holatiga qarab yoki kalendar kunlarga qarab belgilashadi. Natijada esa, o‘simliklardan olinadigan hosil sifatining yomonlashuviga olib keladi.

Sug‘orish muddatlarini belgilashda eng aniq va to‘g‘ri usul tuproq namligi cheklangan dala nam sig‘imiga nisbatan (CHDNS) belgilashdir. O‘simliklarning kunlik suv iste’moli o‘sish va rivojlanish davri bilan bog‘liq. Kundalik suv iste’moli ekish davridan gullash davriga qadar juda past miqdorda bo‘ladi. Birinchi sug‘orishda shoshmaslik zarur. Birinchi sug‘orish, o‘simliklarning yetarlicha gullagani va suvsizlik alomatining aniqlangan vaqtida amalga oshirilishi lozim. Erta sug‘orishlar o‘simliklarda vegetativ (poya, shox, barg hosil qilayotganda) rivojlanishni jadallashtiradi, ammo generativ rivojlanishga, ya’ni dukkak shakllanishiga halaqit beradi.

Gullash, ginaforlar va dukkak shakllanish davrlarida kunlik suv iste’moli ortadi. Yeryong‘oq uchun ginafor paydo bo‘lishidan boshlab, dukkaklar hosil bo‘lishigacha o‘tgan davr eng muhim sug‘orish payti hisoblanadi. Asosan, iyul va avgust oylari issiqligining ko‘pincha 35 °C dan yuqori bo‘lgan va cheklangan dala nam sig‘imi vaqti-vaqti bilan 50 foizdan pasayib ketganda, yeryong‘oqni yuqori issiqlik va qurg‘oqchilik stressga olib kiradi. Bunday noqulay sharoit kuzatilganda sug‘orish ishlari kechiktirilsa hosildorlik va mahsulot sifati pasayadi, hosil bo‘lgan dukkaklar ichidagi urug‘lar to‘liq shakllana olmay qoladi. Ekishdan 4-4,5 oydan so‘ng ya’ni dukkaklarning aksariyati rivojlangandan so‘ng suv iste’moli darajasi pasayishni boshlaydi. O‘rim-yig‘imdan 10-15 kun oldin yig‘ishni osonlashtirish uchun yengil sug‘orishni amalga oshirish mumkin.

Sug‘orish suvi miqdori dalaning tuproq tuzilishi va suv ni ushlab turish qobiliyatiga, havoning issiqlik, shamol, nam va yog‘ingarchilik holatiga bog‘liq. Sug‘orish davri kelgan o‘simliklarda barglarning asta-sekinlik bilan so‘li shi va poya uchki bargchalarining o‘zaro yopilish holati, ya’ni “yelkancha barglanish” kuzatiladi.

Sug‘orish tartibi va muddatlari tuproq-iqlim sharoitiga qarab belgilanadi. Sizot suvlari yaqin joylashgan o‘tloqi allyuvial tuproq sharoitida 4 martagacha, sug‘orish me’yori 600-700 m^3/ga, sizot suvlari chuqur joylashgan tipik bo‘z tuproq sharoitida 6-

7 marta, sug‘orish me’yori 800-900 m^3/ga, yengil qumoq tuproq sharoitida 7-8 marta, sug‘orish me’yori 700-800 m^3/ ga. Sug‘orish tartibi tuproqning dala nam sig‘imiga (CHDNS) nisbatan 70-70-65% bo‘lishi lozim. Yuqorida tavsiya etilgan sug‘orishdan oldingi tuproqning dala nam sig‘imidan yuqori yoki past bo‘lishi va sug‘orish me’yorining ko‘p yoki kam bo‘lishi hosildorlikka putur yetkazadi. Mexanik tarkibi og‘ir bo‘lgan tuproqlarda yeryong‘oq yetishtirilganda o‘sish davrining oxirgi bosqichlarida suvning me’yoridan ortiq bo‘lishi yetilib kelayotgan yong‘oqlarning qorayib ketishiga sabab bo‘ladi. Ko‘p xollarda esa, bu hosilning 80-90 foizini is’temolga yaroqsiz holatga olib keladi.

Sug‘orish ishlarini sifatli olib borish va ularning samaradorligini oshirish uchun tavsiya etilgan sug‘orish tartibiga qat’iyan rioya qilish va suvdan to‘g‘ri foydalanish mo‘l hosil olish garovidir. Bu o‘z navbatida sug‘orishga ketadigan sarf harajatlarni kamaytiradi va suvning iqtisod bo‘lishga olib kelib, suvchilarning mehnatini yengillashtiradi hamda mehnat unumdorligini oshiradi. Yeryong‘oq dalasida oxirgi sug‘ orish ishlarini ishlab chiqish (tuproqning mexanik tarkibiga bog‘liq holda) hosil yig






g‘orish

Xulosa qilib aytganda yeryong‘oq o‘simligi dimmatli dukkakli moyli va oziq ov n amiyatga ega. O‘simlikning iqt n lilik mexanizmlarini ishlab ch a miga moslashtirish va keng maydonlarga ekishga tadbiq qilish ahamiyatli hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, yeryong‘oq yetishtiruvchi ayrim mamlakatlarda yomg‘irlatib yoki tomchilatib sug‘orish usullari ham tadbiq etilmoqda. Hosilning pishib yetilishi erta kuz fasliga to‘g‘ri kelganligi sababli, tabiiy yog‘ingarchilik e’tiborga olinib, o‘rim-yig‘imda

ahamiyatli hisoblangan tuproq namligini ta'minlash maqsadida oxirgi sug'orish muddatining to'g'ri belgilanishi muhim hisoblanadi.

REFERENCES

1. Atabaeva X.RN., Umarov Z. va boshqa. O'simlikshunoslik, - Toshkent: Mehnat, 2000 yil.
2. Shinde BM, Limae AS, Deore GV, Lavare SL Physiological responses of groundnut (arachis hypogaea L) varieties to drought stress. Asian J Exp Biol (2010) Sci SPL.
3. Arya S.S., salve A.R., Chauhan S. Peanuts as funktional food: a review. Journal Food Sei technol. 53, 2016. P.
4. Amanova M., Rustamov A., Atanazarova L., Xudayqulov J. Yeryong'oq ekinini yetishtirish agrotexnikasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent: NISIM Ch. K., 2016
5. Xudoyqulov J.V. Yeryong'oq navlarining tezpisharlik ko'rsatkichlari O'zbekiston qishloq xo'jaligining "AGRO ILM" ilmiy ilovasi. – Toshkent, 2016. Maxsus son
6. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestriga 2007-2017 yillarda kiritilgan navlar va duragaylarning tavsifi. Toshkent 2017.
7. Xudoyqulov J.V., Muxtarov F. Yeryong'oq navlarining muhim xo'jalik belgilariga biostimulyatorlarning ta'siri. "Ekologiya xabarnomasi" jurnali. – Toshkent, 2018. - №6(206).
8. htts://www. thespruce.com/peanut-plant-profile-4797389
9. htts://www.agro.uz/ru/yer-yong-oq/#1635091535272-193d7865-e69a
10. htts://navagro.uz/tavsiyalar/mavsumiy-tavsiyalar/1285-yeryongoqqandayyetishtiriladi.html
11. htts://www.plantarium.ru/page/view/item/43607.html